

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEV RAXIMJON MURODILOVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Ubaydullayev Raximjon Murodilovich

Bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini
rivojlantirish texnologiyasi 3

Убайдуллаев Рахимжон Муродилевич

Технология развития у будущих учителей культуры
здорового образа жизни 27

Ubaydullayev Raximjon Murodilovich

The technology of developing healthy lifestyle culture in future teachers 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDULLAYEV RAXIMJON MURODILOVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.Phd/Ped7553 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xankeldiyev Sher Xakimovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Isaqova Muazzam To'liqinovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" 10 kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Gender tengligi tadqiqotlar markazi, 1-qavat, majlislar zali. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (584 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi Tel.: (+99873) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil "11" 10 dagi "37" raqamli reestr bayonnomasi).



B.Sh.Shermuhammadov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

B.X.Baydjanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

B.Q.Qurbonova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy, pedagogik-psixologik, jismoniy-valeologik, ijtimoiy-madaniy sohalaridagi ta‘limi va tarbiyasini samarali tashkil etishning innovasion tizimini ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. YUNESKOning qator ta‘lim bo‘yicha rezolyusiyalarida ham yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish, tinchlik uchun ta‘lim g‘oyasiga ustuvorlik berilmoqda. Ayniqsa, oliy ta‘lim tashkilotlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bilan birga, ularda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini qaror toptirish, zarur bo‘lgan ijtimoiy-hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uzluksiz ta‘limning strategik maqsadlarini o‘zida ifoda etmoqda.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlari oliy ta‘lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirishning pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish, ilmiy-innovasion yondashuv va fanlararo integrasiya asosida mazkur jarayonning nazariy va amaliy jihatlarini ta‘lim-tarbiya mazmuniga singdirish va uning vositasida talabalarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini qaror toptirishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, AQSHning Massachusets shtatida joylashgan Garvard universiteti (Harvard University)da sog‘lom ovqatlanish va jismoniy faollikning inson salomatligiga ta‘siri, Buyuk Britaniyaning London universiteti (The University of London)da yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish va ularning tarqalishini kamaytirish, Avstraliyaning Sidney universiteti (The University of Sydney)da aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va uning samaradorligini oshirish, Yaponiyaning Tokio (The University of Tokyo)da talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, talabalarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining refleksiv mexanizmlarini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzini faollashtirish orqali ularning ijtimoiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish asosida har tomonlama rivojlangan talaba shaxsini tarbiyalashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzini tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish, mazkur jarayonning tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ijtimoiy-iqtisodiy, sport-sog‘lomlashtirish va tibbiy-profilaktik ishlar samaradorligi va ta‘sirchanligini oshirish, ularning ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, “aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, bunda me‘yoridan ortiq tuz iste‘mol qiladigan aholi ulushini 32 foizga, yetarlicha jismoniy faollikka ega bo‘lmagan aholini 22 foizga, ortiqcha vaznga va semizlikka ega katta yoshdagi aholini tegishincha 32 foiz va 23 foizga qadar kamaytirish”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, targ‘ibot-tashviqot va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.

tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish mazmuni, bosqichlari, modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risidagi” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-sonli “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 16-iyundagi PQ-5148-sonli “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 6-apreldagi 542-sonli “Davlat ta‘lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishning ta‘limiy omillari, o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshirishning ma‘rifiy vositalari, sog‘lom turmush tarzi va uning pedagogik-psixologik hamda falsafiy jihatlari A.Abdullayev, X.Boltaboyev, L.Gadoyeva, A.Hojimirzayev, D.Inogamova, O.Jamoldinova, N.Maxmudov, I.Matchonov, O.M.Musurmonova, I.Qudratov, M.Qoyilova, S.Ro‘zimurodov, K.Rahimova, A.Saidov, Sh.Xankeldiyev, D.Sharipova, G.Shaxmurova, X.Shayxova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini qaror toptirishning nazariy jihatlari va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari L.Akimova, N.Abaskalova, B.Babaraxmatov, Georgiyevskiy, T.Kamenskaya, P.Dribinskiy, A.Dubachay, N.Meleshkova, G.Populo, O.Plaksinalarning tadqiqotlarida umummetodologik asosda tahlil qilingan.

Xorijlik olimlardan C.Acejias, K.Almutairi, G.Bento, V.Bruni, Di.Stefano, T.Rezer, R.Bunton, S.Tilfordlarning tadqiqotlarida inson ma‘naviy va jismoniy rivojlanishining uyg‘unligi, harakatli o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda sog‘lom

turmush tarzini targ'ib qilishning ilmiy asoslari va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning oqilona usul va yo'llarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish muammosi bilan bog'liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biroq bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish texnologiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari, komponentlari va tuzilmasi, mezon va ko'rsatkichlari, modeli va texnologiyasini ishlab chiqish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogika fanlarini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va rivojlanish tendensiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"sog'lom turmush tarzi madaniyati" tushunchasining mohiyatini yoritib berish orqali bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning metodik xususiyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzulmasini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning tizimli-jarayonli-metodik modelini ishlab chiqish;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishining 468 nafar respondent-talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, metodik va maxsus adabiyotlarni o'rganish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, modellashtirish); empirik (pedagogik tajriba-sinov, kuzatish, so'rovnoma, test o'tkazish); matematik (matematik-statistik ma'lumotlarni qayta ishlash) usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish jarayoni tuzilmasi kognitiv-motivatsion, operatsion-faoliyatli, emotsional-qadriyatli, valeologik-profilaktik, natijaviy-baholovchi komponentlari pedagogik ta'limning sog'lom-ijodiy mohiyatining faol izlash tamoyiliga muvofiq talabalarning madaniy rivojlanishining ichki va tashqi determinatsiyasi sinergiyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish mazmuni talabalarning umuminsoniy qadriyatlar negizida madaniy "matnlar", o'z-o'zi, ta'limning boshqa subektlarini o'zaro birgalikdagi harakati bilan faol dialogga kirishishi amalga oshadigan intersubektiv jarayonning invariantligi shaxsiy-kasbiy mohiyatining barqarorligini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish modeli mazkur jarayon subekti sifatida pedagog shaxsining shakllanish mazmuni, mexanizmlari va darajalarini aniqlab beradigan ta'limiy faoliyatning maqsadli, mazmunli, texnologik tarkibiy asoslarning yaxlitligi determinatsiyasi dinamik assimetriyasi korrelyasiyasini hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning texnologik strategiya va taktikasi bilimlarni to'liq o'zlashtirish, dasturlashgan o'qitish, emotsional-baholovchi, kommunikativ-etik pedagogik vaziyatlar, mazmunli-izlanishli dialog va munozara, germenevtik o'qitish texnologiyalarini adaptiv variantlarda loyihalash va amalga oshirish mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish mezonlari va darajalari aniqlashtirilgan;

"Pedagogik valeologiya" nomli to'garak dasturi ishlab chiqilgan va didaktik ta'minoti yaratilgan.

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning "Hexa Result" ta'lim texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan "Yunogogika" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga doir ma'lumotlarning talqiniga oid zamonaviy mulohazalar ko'lamining kengaytirilganligi, mazkur jarayonni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining ishlab chiqilganligi, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar mohiyatining yoritib berilganligi, pedagogik valeologiya to'garagining bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga doir didaktik imkoniyatlarining ochib berilganligi, oliy ta'lim muassasalari talabalarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish jarayoni texnologik yondashuvga asoslangan holda tashkil etishga bog'liqligi nazariy materiallar asosida boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning tizimli-jarayonli-metodik modeli, jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar,

auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish yo'llari, shuningdek, mazkur jarayonga doir ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish jarayoni tuzilmasi kognitiv-motivatsion, operatsion-faoliyatli, emotsional-qadriyatli, valeologik-profilaktik, natijaviy-baholovchi komponentlari pedagogik ta'limning sog'lom-ijodiy mohiyatining faol izlash tamoyiliga muvofiq talabalarning madaniy rivojlanishining ichki va tashqi determinatsiyasi sinergiyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) yo'nalishi uchun "Yunogogika" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-son buyrug'i, 333-212-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish mazmuni talabalarning umuminsoniy qadriyatlar negizida madaniy "matnlar", o'z-o'zi, ta'limning boshqa subektlarini o'zaro birgalikdagi harakati bilan faol dialogga kirishishi amalga oshadigan intersubektiv jarayonning invariantligi shaxsiy-kasbiy mohiyatining barqarorligini hisobga olish asosida, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish modelini mazkur jarayon subekti sifatida pedagog shaxsining shakllanish mazmuni, mexanizmlari va darajalarini aniqlab beradigan ta'limiy faoliyatning maqsadli, mazmunli, texnologik tarkibiy asoslarning yaxlitligi determinatsiyasi dinamik assimetriyasi korrelyasiyasini hisobga olish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) yo'nalishi uchun "Oila pedagogikasi" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-son buyrug'i, 333-161-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, zamonaviy bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyati targ'ibotiga doir kooperativ kompetensiyani rivojlantirishga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning texnologik strategiya va taktikasi bilimlarni to'liq o'zlashtirish, dasturlashgan o'qitish, emotsional-baholovchi, kommunikativ-etik pedagogik vaziyatlar, mazmunli-izlanishli dialog va munozara, germeneytik o'qitish texnologiyalarini adaptiv variantlarda loyihalash va amalga oshirish mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) yo'nalishi uchun "Yunogogika" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-son buyrug'i, 333-212-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, OAK tasarrufidagi jurnallarda 12 ta, shundan 9 tasi respublika jurnallarida, 3 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 140 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, mazkur jarayonning metodik tuzilmasi hamda amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-sonli “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida “sog'lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini; sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish; sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish; sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish” masalalari muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

Tanlangan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini yoritishda asosiy tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglash tadqiqot yo'nalishini aniq belgilab olish imkonini beradi. Ana shu sababli tadqiqotda “bo'lajak o'qituvchi”, “sog'lom turmush tarzi”, “sog'lom turmush tarzi madaniyati”, “pedagogik valeologiya”, “pedagogik texnologiya”, “ta'lim texnologiya”, “pedagogik mexanizm” kabi tushunchalar mazmuni yoritib berildi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “bo'lajak” tushunchasi “1. Bo'lmoq. 2. Bo'lishi ma'lum bo'lgan, bo'lg'usi” sifatida izohlangan. “O'qituvchi” atamasi “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “turli yo'nalishlardagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis” tarzida, “Pedagogika ensiklopediyasi”da “umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan, o'quv jarayoniga rahbarlik qiladigan pedagog mutahassis” deb berilgan. Demak, “bo'lajak o'qituvchi” – kelgusi faoliyatida uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaga oid faoliyatni tashkil etuvchi hamda o'quv jarayoniga rahbarlik qiluvchi oliy ta'lim muassasasi talabasi xisoblanadi.

“Sog‘lom turmush tarzi” tushunchasi “Pedagogika ensiklopediyasi”da “nosog‘lom yoki nuqsonli turmush tarziga xos bo‘lgan axloqiy jihatlarni inkor etish va insoniy odobning ijobiy tomonlarini o‘zida mujassamlashtirish jarayonida takomillashib, rivojlanib boradigan qarashlar, qonun-qoidalar va prinsplarni o‘zida aks ettirgan yondashuvlarga rioya qilishni ifodalovchi atama” sifatida ifodalangan bo‘lsa, “madaniyat” tushunchasi “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma‘naviy boyliklarda ifodalanadi” deb ta‘rif berilgan.

Salomatlik insonning birinchi va eng muhim ehtiyoji bo‘lib, uning mehnat qobiliyatini belgilaydi va shaxsning barkamol rivojlanishini ta‘minlaydi. Bu atrofimizdagi dunyoni tushunish va inson baxtining eng muhim sharti xisoblanadi.

Demak, sog‘lom turmush tarzi madaniyati tushunchasini quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin: bu keng doiradagi tushuncha bo‘lib, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy va ruhiy salomatligi, ijtimoiy farovonlik holatidir. Insonning o‘z oldiga qo‘ygan har qanday maqsadga erishish qobiliyatining aniq ifodasi sifatida tizimli jarayon xisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 18-mart kuni tibbiyot hodimlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda xalqimiz salomatligi hamma narsadan ustun va qadrli ekanligini ta‘kidlab o‘tdi. Shuningdek, jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, 9 foiz sog‘liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog‘liq ekanligiga to‘xtalib, shu bois mazkur sohada bajariladigan muhim ishlarning asosiy yo‘nalaishlaridan biri sifatida “jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini oshirish” vazifasi ko‘rsatib o‘tilgan.

Sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish borasida bundan bir necha asrlar ilgari yaratilgan manbalarda ham ma‘lumotlar keltiriladi, jumladan, “Avesto”da insonparvarlik, odob-axloq, saramjon-sarishtalik, poklik va tozalik masalalari beqiyos ulug‘lanadi, “Ayurveda”da kasalliklarning kelib chiqishi, ob-havo va tabiiy iqlim sharoiti, ovqatlanish tartibi, shaxsiy gigiena masalalari atroficha ochib berilgan, “Daosizm falsafasi” an‘anaviy xitoy salomatlik nazariyasining asosi bo‘lib, unda inson tanasi, sezgilari, mulohaza qilish qobiliyati yahlit o‘rganilgan, “Qur‘on”da bilim olish, axloq-odob, poklik, insoniylik va ma‘naviy go‘zallik, kishilarning ommaviy ozodalagi ulug‘lanadi. Mazkur manbada insonlar uchun bajarilishi buyurilgan asosiy vazifalar ham sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi, insonlarni jismoniy harakatlanishga undaydi, ruhiy hotirjamligini ta‘minlaydi, inson butun tanasi faoliyatida barqarorlikni shakllantiradi. “Jud-Shi”da insonning sog‘lom bo‘lishi, o‘z bardamligi, aqlining tiniqligini qarilikda saqlab qolish uchun qanday yashashi kerakligi yozilgan. “Qobusnoma” asarida tibbiyot ilmi va gigiyenaga oid qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Jumladan, asarning “Nafsni tiyishning sharofati va taom tartibi haqida”, “Hammomga borish haqida”, “Uxlamoq va dam olish haqida”, “Tib ilmining tartibi haqida”gi boblari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Eramizdan oldingi IV asrda yashab ijod etgan buyuk olim Gippokrat “Sog‘lom turmush tarzi haqida” degan kitobida sog‘lom turmush tarzini

shakllantirish mexanizmini o'rganish hamda kishilarda o'z sog'lig'iga bo'lgan e'tiborni hayotiy zarurat darajasiga chiqarish keng tadqiq qilingan.

Mashhur olim, faylasuf Abu Bakr Ar-Roziy "Ma'naviyat tibbiyoti", "Falsafiy turmush tarzi" kabi asarlarida inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida batafsil ma'lumotlar beradi.

Ulug' alloma, ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy "Javohirot kitobi"da inson salomatligi, tozaligi haqida qimmatli fikrlar yozib qoldirgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino fanlarning deyarli barcha sohalarida chuqur iz qoldirgan. Ibn Sinoning tabobat ilmiga qo'shgan hissasi ayniqsa bebahodir. Tabobat sohasidagi qarashlarini u 1012-1014-yillarda yozilgan besh jildlik "Tib qonunlari" asarida batafsil bayon qilgan. "Tib qonunlari"ning birinchi jildidagi salomatlik, sog'lom turmush tarzi tadbirlari haqidagi maxsus fanida inson salomatligini saqlashga aloqador omillar to'g'risida so'z yuritib, "bunda asosan quyidagi yetti narsani: mizojni mo'tadil qilish, yeyiladigan va ichiladigan narsalarni tanlash, gavnani chiqindidan tozalash, to'g'ri tuzilishini saqlash, burunga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi qilish, kiyinishni yaxshilash, jismoniy va ruhiy harakatlarni mo'tadillashga ko'proq e'tibor berish kerak, shu harakatlar jumlasiga ma'lum darajada uyqu va uyg'oqlik ham kiradi", deb ta'kidlagan. Ibn Sinoning fikricha, sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiya, keyin ovqat tadbiri va uyqu tadbirlari hisoblanadi.

Tadqiqotchi olimlar T.I.Iskandarov va V.I.Is'hoqovning "Sog'lom turmush tarzi: sharqona an'analar va zamonaviylik" nomli monografiyasida inson salomatligi madaniylik oynasi sifatida talqin qilinadi.

Valeologiya fanining asoschisi bo'lgan I.I.Brexman inson salomatligi tushunchasiga mutlaqo yangicha yondashib, shaxsiy salomatlik va jamiyat salomatligi tushunchalarining bir-biridan farqlari, sog'lom turmush tarzining ko'pchilik uchun umumiy tomonlari, shuningdek, har bir odam uchun o'ziga xos tomonlari borligini ko'rsatib o'tgan.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiyaning nazariyotchi olimlari R.Salomov, K.Mahkamjonov, Yu.Yunusova, Sh.Xonkeldiyev, A.Abdullayev, H.Rafiyev, H.Botirov, O'.Ibrohimovlar o'z tadqiqotlarida jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi tushunchalarini bir qolipda tavsiflaydilar va ularning o'zaro aloqadorligini, ahamiyatini hamda yosh avlodni sog'lomlashtirish hamda jismoniy rivojlanishida tutgan o'rnini ilmiy-nazariy asosda yoritib berganlar. Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish insonning nafaqat jismoniy barkamolligi, balki axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ham hissa qo'shishini ta'kidlashgan.

Nazariy va metodik adabiyotlar tahlili, qomusiy allomalar ilmiy merosi hamda tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar asosida "bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish – ijtimoiy-hayotiy ko'nikma va umuminsoniy qadriyatlar negizida kognitiv-motivatsion, operatsion-faoliyatli, emotsional-qadriyatli, valeologik-profilaktik, natijaviy-baholovchi komponentlar orqali sog'lom turmush tarzi madaniyati (kun tartibi; shaxsiy gigiyena; faol harakatlanish; to'g'ri va sog'lom

ovqatlanish; ruhiy osoyishtalik; zararli odatlardan tiyilish)ga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishga qaratilgan maqsadli jarayondir”.

Tadqiqot ishi doirasida pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik, salomatlik va sog‘lom turmush tarziga oid adabiyotlar, olimlar tomonidan sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga oid yaratilgan manbalar hamda qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida, bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi aniqlashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi

Komponentlar	Mazmuni
<i>Kognitiv-motivatsion</i>	Talabalar tomonidan shaxsning huquq va majburiyatlari, sog‘lom turmush tarzi va xulq-atvor me‘yorlari to‘g‘risidagi bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni, sog‘lom turmush tamoyillari (kun tartibi; shaxsiy gigiyena; faol harakatlanish; to‘g‘ri ovqatlanish; ruhiy osoyishtalik; zararli odatlardan tiyilish) haqidagi bilimlarning tarkib topganligi, ijtimoiy munosabatlarning ayrim usullarini o‘zlashtirish muhimligini anglanishi va mazkur jarayon motivlarining shakllanganligi.
<i>Operatsion-faoliyatli</i>	Talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, jismoniy va ruhiy salomatlikni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va pedagogik faoliyatda integratsiya qilish, shuningdek, STTga oid faoliyatlarni rejalashtirish va monitoring orqali ularning ko‘nikmalarini baholash hamda rivojlantirish. Mazkur jarayon talabalarga STT o‘rgatish uchun zarurdir.
<i>Emotsional-qadriyatli</i>	Talabalarning milliy qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha qomusiy olimlarimiz ilmiy merosini qadrlashi, ta‘lim-tarbiyaning barkamol insonni shakllantirish g‘oyalarini tushunishi, sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda o‘z imkoniyati va irodasiga tayanishi, chinakam vatanparvar shaxs sifatida o‘z taqdirining bunyodkori, soha bo‘yicha mamlakatda kechayotgan ijtimoiy yangilanishlarning faol ishtirokchisi bolishi.
<i>Valeologik-profilaktik</i>	Valeologik-profilaktik komponent bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishda salomatlikni saqlash, kasalliklarning oldini olish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu komponent valeologik bilimlar, gigiyena qoidalari, kasalliklarning oldini olish usullari va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni qamrab oladi.
<i>Natijaviy-baholovchi</i>	Natijalarni o‘lchash va baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali o‘rganilganligini aniqlash uchun turli baholash metodlarini qo‘llash, monitoring tizimi, testlar, so‘rovnomalar va amaliy baholash vositalari yordamida natijalar tahlil qilinadi. Baholash jarayonini to‘g‘ri tashkil etish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, pedagogik bashoratlashning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga erishiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishlari o‘quv-me‘yoriy hujjatlari tahlili “Sog‘lom turmush tarzi madaniyati”, “Pedagogik valeologiya”, “Sog‘lom turmush asoslari”, “Ta‘lim va salomatlik”, “Shaxs salomatlik madaniyati” kabi alohida elektiv kurslar mavjud emasligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish pedagogika ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejalaridagi turli fanlar bo‘yicha integrallashgan bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish orqali amalga oshirilayotganligi haqidagi xulosaga kelish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratildi. O'tgan davr mobaynida bu borada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, yangi avlod adabiyotlari yaratildi, ko'plab ommaviy-madaniy va targ'ibot tadbirlar tashkil etildi. Tashkil etilgan mazkur tadbirlar doirasida oliy ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarziga oid turli seminarlar, treninglar va ma'rifiy tadbirlar tashkil etilgan. "5 ta muhim tashabbus" dasturi doirasida ham sog'lom turmush tarzini rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratildi. Shunday bo'lsada, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning ijtimoiy muhimligi talabalar orasida juda ham keng tarqalgan emas. Sog'lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish, targ'ib qilishga qaratilgan fanlar, sport to'garaklariga mutaxassis bo'lmagan yo'nalish talabalari tomonidan katta qiziqish bildirilmaydi.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasidagi fanlar gorizontol tamoyilga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ularning mazmunida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish masalalarini to'liq aks ettirish imkoniyati mavjud emas. Empirik tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida biz sog'lom fikrlaymiz, sog'lom avlod, sog'lom hayot, sog'lom yashashni o'rganamiz nomli turli to'garaklar faoliyat yuritsada, biroq mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishni nazariy va amaliy jihatdan uyg'un holda o'rganish masalasi ko'zda tutilmagan. Natijada, tajriba-sinov ishlarining asoslovchi bosqich natijalarini tahlil etish va umumlashtirish asosida "Pedagogik valeologiya" elektiv kurs o'quv dasturini ishlab chiqish, pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida tanlov fan sifatida o'qitish hamda boshqa pedagogika yo'nalishlari uchun to'garak mashg'ulotlari taqvim-mavzu rejalariga kiritish maqsadga muvofiq ekanligi haqidagi xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish mazmuni, mazkur jarayonning tizimli-jarayonli-metodik va texnologiyasi yoritib berilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonida talabalarga sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish, ularning jismoniy, ruhiy, psixologik va ijtimoiy salomatligini ta'minlashga qaratilgan kompleks pedagogik faoliyatdir degan xulosaga kelindi.

Bu jarayon, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash va yaxshilashga qaratilgan hayot tarzi bo'lib, quyidagi asosiy komponentlarni o'z tarkibiga oladi. Jumladan: a) faol jismoniy harakatda bo'lish; b) ruhiy osoyishtalik; d) ekologik madaniyat; e) to'g'ri ovqatlanish; f) kun tartibiga rioya qilish; g) zararli odatlardan tiyilish; h) shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish.

Dissertatsiyaning mazkur bobida pedagogik fanlarning bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni, ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilindi. "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan fanlar mazmunini boyitish maqsadida muammo bilan bog'liq qator o'quv materiallari loyihalashtirildi. O'quv dasturlari mazmuni asosida bo'lajak

o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavzular aniqlashtirildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Pedagogika fanlari o'quv dasturi mazmunida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavzular

№	Fan nomi	O'quv dasturida keltirilgan mavzular
1	Ijtimoiy pedagogika	Oilada olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Giyohvandlik – deviant xulq shakli sifatida. Bolalarning aqliy, jismoniy va estetik rivojlanishini pedagogik tashxis etishning metodlarini amaliy o'rganish.
2	Oila pedagogikasi	Oilada axloqiy tarbiyani shakllantirish yo'llari. Oilada jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish asoslari. Oilada bolalarni mehnatga o'rgatish. Oilada ekologik tarbiya.
3	Tarbiyaviy ishlar metodikasi	Tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasi. Tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish yo'llari.

Sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish didaktik jarayonning maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va shaxsiy yondashuvini talab qiladi. Bu jarayonning o'ziga xosligi sifat jihatdan yangi bilimlarni egallash va talabalarning mavjud bilim, ko'nikma va shaxsiy tajribasini analitik-sintetik qayta ishlash orqali kengaytirish bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik model ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur pedagogik model jarayonning maqsad, mazmun, vosita va natijalarini yagona tizimga birlashtirib, bo'lajak o'qituvchilarning sog'lom turmush tarzi madaniyatiga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlaydi.


Tadqiqot doirasida pragmatik, ma'lum bir tizim va jarayonni o'zida aks ettiruvchi tizimli-jarayonli-metodik modelni ishlab chiqish maqsad sifatida belgilandi.

Bizning tadqiqotimizda modellashtirish ob'yekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish jarayoni, predmetini esa, ularda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

Tadqiq etilayotgan jarayonni modellashtirishning nazariy-metodologik asosi sifatida quyidagi qoidalarga tayanildi: tizimli, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv yondashuvlar; pedagogik loyihalash nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini modellashtirish; didaktik va metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslari; qadriyatli yo'nalganlikni shakllantirish va fuqarolik tarbiyasi konsepsiyasi; axborot kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning tizimli-jarayonli-metodik modeli maqsadga yo'naltirilgan, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli, tashkiliy-pedagogik va natijaviylik komponentlarini o'zida aks ettirdi (1-rasmga qarang).

Pedagogik modelning maqsadga yo'naltirilgan komponenti bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning boshqa bloklari uchun yetakchi bo'lib, mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standarti, malaka talablari va ijtimoiy buyurtma belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning tizimli-jarayonli-metodik modeli

Metodologik komponent o'zida tamoyil, yondashuv va metodlarni, mazmunli-jarayonli komponent quyidagi majmuaviy pedagogik shart-sharoitlarni o'zida aks ettiradi: sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga oid bilim va axborotlarni aniq maqsad asosida izlash va qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarga yechim topish hamda bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini qaror toptirish; vaziyatlarni tahlil etish va topshiriqlarni bajarish orqali sog'lom turmush tarziga oid reflektiv nuqtai nazarni shakllantirish; o'quv loyihalarini tayyorlash jarayonida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga doir amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirish.

Modelning natijaviylik bloki baholovchi funksiyani bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish darajalari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy o'lchov mezonlari shaxsni rivojlantirishning ko'proq yuqori darajasining egallaganligini aks ettiradi. Tadqiqotda quyidagi besh o'lchov mezoni aniqlashtirildi: 1) motivatsion; 2) kognitiv; 3) shaxsiy-reflektiv; 4) faoliyatga doir; 5) qadriyatli.

Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlanganligini baholashda darajali yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv har bir mezon bo'yicha bir darajadan boshqasiga o'tishda o'rganilayotgan jarayon dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning quyidagi darajalari aniqlandi: obyektli-sust (past), obyektli-faol (o'rta), subyektli (yuqori). Mazkur darajalarning qisqacha tavsifi 3-jadvalda qisqacha keltirib o'tilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlanganlik darajalari tavsifi

Daraja	Daraja tavsifi
Obyektli-sust (quyi)	Talabalar sog'lom turmush tarzi bo'yicha faoliyati mexanik, o'zi mustaqil bo'lishga qodir emas.
Obyektli-faol (o'rta)	Talabalar sog'lom turmush tarzini o'rta darajada anglaydi va uni qisman bajaradi, lekin doimiy ravishda barqaror emas.
Subyektli (yuqori)	Talabalar sog'lom turmush tarzini hayot faoliyatiga ijodiy yondashgan holda tashkil etadi, o'z tashabbusi bilan boshqalarni ham jalb qiladi.

Mazkur darajalar bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning namoyon bo'lishini tavsiflashga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlarini yagona tizim sifatida uyg'unlashtiradigan ilmiy tushuncha bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq metodlar, vositalar va algoritmlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tushuncha ta'limda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va jarayonni boshqarishning pedagogik tamoyillari asosida shakllanadi. Pedagogik texnologiyalar ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi ketma-ket bosqichlar va jarayonlarni optimallashtirishini nazarda tutadi.


Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xosligi, ularning moslashuvchanligi, shaxsga yo'nalganligi, motivlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishdagi yuqori salohiyatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot ishi jarayonida yaratilgan "Hexa Result" texnologiyasi o'quv jarayonining muayyan maqsadlariga yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq modullar asosida tashkil etilishini ta'minlovchi didaktik tizimdir. Mazkur texnologiya ta'lim maqsadlariga erishishning moslashuvchan va samarali usulini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishimiz jarayonida yaratilgan "Hexa Result" texnologiyasi rasm holatida quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (2-rasmga qarang).

Tadqiqot ishi jarayonida yaratilgan bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning "Hexa Result" texnologiyasi reflektiv yondashuvning konseptual asoslariga tayangan holda loyihalashtirilgan, texnologiya tizimli tavsifga ega bo'lib, maqsadga yo'nalgan jarayonni ifodalaydi.

Mazkur texnologiya ikki qismdan tashkil topgan: mazmunli-jarayonli-metodik va tashkiliy-pedagogik-dagnostik. Texnologiyaning mazmuni o'zida information, dalillash, maqbullash, bajarish, refleksiya va natijaviy bosqichlarni mujassamlashtirgan. Mazkur bosqichlarning har biri o'zida anglash, tushunish, munosabat va fikrlash jarayonlarini aks ettirdi.



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning "Hexa Result" texnologiyasi

Tahliliy materiallar asosida shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish uchun "Ijtimoiy pedagogika", "Oila pedagogikasi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanlari orqali integrallashgan bilimlar berib kelinayotganligi kuzatildi. Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus fan o'qitilmayotganligini inobatga olgan holda,

pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tanlov fanlar blokiga uchta moduldan iborat "Pedagogik valeologiya" fani kiritildi, ushbu nomdagi o'quv fani va to'garak dastur ishlab chiqildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida mazkur to'garak faoliyati tashkil etildi.

Pedagogik valeologiya to'garagining dasturi quyidagi uchta modulni o'z ichiga qamrab oldi:

1-modul. Pedagogik valeologiyaning nazariy-metodologik asoslari: pedagogik valeologiyaning asosiy kategoriyalari; valeologik yo'nalishlar: pedagogik, ekologik va ijtimoiy valeologiya; pedagogik valeologiyaning o'ziga xos jihatlari; sog'lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogning metodik yondashuvlari; sog'lom turmush tarzini tarbiyalashdagi pedagogik innovatsiyalar; pedagogik valeologiyada nazorat, baholash va monitoring ishlarini tashkil etish.

2-modul. Sog'lom turmush tarzi va uning komponentlari: inson salomatligi. Sog'lom va nosog'lom turmush tarzi tavsifi; sog'lom turmush madaniyati va uning komponentlari; ruhiy barqarorlik va osoyishtalik – sog'lom turmush tarzining asosiy mezoni sifatida; to'g'ri ovqatlanish. Ovqatlanishning inson o'sishi, rivojlanishi va salomatligiga ta'siri; faol harakatli kun tartibi va uni ishlab chiqish metodikalari; sog'lom turmush tarziga oid kundaliklar yuritish; sog'lom turmush tarzini mustahkamlovchi omillar; sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga oid individual yondashuvlar; sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga hizmat qiluvchi platformalar.

3-modul. Ijtimoiy va ekologik muammolar salomatlik kontekstida: ijtimoiy va ekologik muammolar pedagogik valeologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida; jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish; aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash masalalari; inson salomatligi va zararli odatlar.

Shuningdek, "Pedagogik valeologiya" to'garagining samarali tashkil etilishi bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur to'garakning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida mavzular xususiyatidan kelib chiqib pedagogik ta'lim texnologiyalarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Modulli o'qitish texnologiyasi (Modular Teaching Technology) – ta'lim jarayonini qismlarga (modullarga) bo'lib, har bir modulni mustaqil o'quv elementi sifatida o'rgatishga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvdir.

Loyihaviy ta'lim texnologiyalari (project-based learning) – bu talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq etish, ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir.

Simulyatsion ta'lim texnologiyasi (Simulation-based learning) – ta'lim jarayonida talabalarga amaliyotdagi real vaziyatlarni yaratib, ularni virtual yoki modellashtirilgan holatlarda o'rganishga imkon beradigan o'qitish usulidir.

Shu bilan birga, "Pedagogik valeologiya" to'garagini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar qatorida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Hexa Result" nomli mualliflik texnologiyasini tatbiq etish o'zining yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Mazkur texnologiya bo'lajak o'qituvchilarda

sogʻlom turmush tarzi madaniyatini kompleks tarzda rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, uning mazmuni va amalga oshirish bosqichlari quyidagicha ifodalanadi.

“Hexa Result” texnologiyasi – bu boʻlajak oʻqituvchilarda sogʻlom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan innovatsion pedagogik model boʻlib, u oltita asosiy natija (hexa – “oltilik”, result – “natija”) konsepsiyasiga asoslanadi. Mazkur texnologiyaning asosiy maqsadi talabalarda jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, intellektual, axloqiy va ekologik jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanishga yordam beruvchi integrallashgan taʼlim muhitini yaratishdan iboratdir.

